

**INNOVATSION TEXNOLOGIYA YORDAMIDA INGLIZ TILINI  
O’RGANISH VA O’RGATISH TEKNIKALARI**

***Boboqulova Mohinur***

*Termiz davlat Pedagogika instituti*

*Ta’lim: Xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) 2 kurs talabasi*

**Annotatsiya:** mazkur maqola ingliz tilini o’rganish, o’rgatish, yangi texnologiyalar, yangi uslublar bilan ishlash, ingliz tilini rivojlantirishga bog’liq taklif va mulohazalar

**Kalit so’zlar:** ingliz tili, innovatsion, texnologiya, ta’lim texnologiyalari

**Abstract:** this article is about learning and teaching English, working with new technologies, new methods, suggestions and comments related to the development of the English language

**Key words:** English,innovation, technology,educational technology

**Аннотация:** эта статья об изучении и преподавании английского языка, работе с новыми технологиями, новых методах, предложениях и замечаниях, связанных с развитием английского языка.

**Ключевые слова:** Английский, инновация , технология ,учебные технологии

Vatanimiz Mustaqillikga erishgandan so’ng yurtimizda chet tillarni o’rganishga juda katta e’tibor qaratilib kelmoqda . Xozirgi kunda nafaqat maktab ,litsey o’quvchilari va oliy yurt talabalariga ,balki barcha maktabgacha ta’lim muassasadagi tarbiyalanuvchilari va turli soxada ishlovchi hodimlarga ham chet tilini, ya’ni ingliz tilini o’rgatish yo’lga qo’yilgan. Til bilgan el biladi. Xaqiqatdan xam, xorijiy tilni bilgan kishiga juda katta imkoniyatlar eshigi ochiladi. Bilimli kadrlarni tayyorlash jarayonida ingliz tilini o’qitishning yangi texnologiya-mehanizmlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Ya’ni, bugungi kunda ta’lim muassasalarida zamонавиј pedagogik texnologiyalardan foydalanib , o’qitishning , shu tillarda erkin so’zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash uchun keng imkoniyantlar yaratilib kelmoqda. Xorijiy tillirda ,ayniqsa , ingliz tilida muloqot qilishda, nutqni tushunish , mutolaa qilish va yozish , adabiyotlarni o’qishda,qo’l yozmalarni tushuntirish , yozma axborot almashish jarayonlarda texnologiyalarni axamiyati beqiyosdur. Kompyuter yordamida til o’rganish- o’yin shaklida yaratilgan dasturlar , rasm yoki videolar. Turli xil rasmlar yordamida yaratish , so’ogra o’sha rasmni tasvirlab berish.Bu esa darsning ya’nada qiziqarli o’tishini ta’minlaydi.

Shuningdek, matnning qismlari bo’yicha suxbat o’tqazish . Bunda o’quvchilar olgan bilimlarni amalda qo’llashi uchun zarur bo’lgan so’z boyligini oshirish

imkoniyatini beradi . Yoki guruhlarga bo’linib turli xil debatlar (ya’ni baxslar) o’tqazib turish bu so’z boylikni ancha rivojlantirishga yordam beradi . Bu esa , bemalol o’zini fikrini ayta olishi , boshqalarni fikriga quloq solib , tinglashni o’rganadi. O’yinning ahamiyati shundaki, o’qituvchida har bir talabani fikrini eshitishga , ularning faol ishtiroki xamda ularning bilim saviyalari darajasini namoyon qiladi. O’quv jarayonlarda ko’plab yangicha texnikalardan foydalanilsa, o’quvchining darsga bo’lgan qiziqishi va jadallashuvi ya’nada oshib boradi. Har qanday o’yin zamirida umumiyl qabul qilingan ta’lim prinsiplari ,taktikasi yotishi kerak. O’yinlar jarayonida o’quvchi oddiy darsga qaraganda bu mashg’ulotga qiziqibroq yondashadi va bemalol ishtirok etadi. Ta’kidlash kerakki, o’yin eng avvalo, o’qitishning bir turidir. O’quvchilar o’yinli darsga qiziqib qatnashadilar , yutishga xarakatb qiladilar. Bu esa o’zida bor ishonchni ya’nada oshirishga yordam beradi. Har kungi bir xil olib borilgan darslardan ko’ra ancha qiziqarli o’tadi.

Savol-javoblar va rasmli o’yinlar , turli xil mavzudagi (discussion) usuli darslarni yanada mazmunli va qiziqarli o’tishga yordam beradi. Talaba xato qilishdan qo’rqmay bemalol o’z fikrini ayta oladi. Bu talabalarni g’oyalar o’ylab topishga undaydi, erkin muloqotda bo’lish imkonini beradi va natijada ancha fikrlar to’planadi. Dars mobaynida ularning sevimli musiqalarini qo’yib ,musiqa matnini tinglab to’ldirish yoki birgalikda uni xirgoya qilish (listening) ancha rivojlantiradi. Va eshitish qobiliyati xam anchagina o’sadi.

Eng muximi, bugungi kunda til o’rganuvchilarda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, internetning keng imkoniyatlaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Bu texnologiyalar xar bir o’quvchining chet tili bo’yicha bilim, malaka ko’nikmalarini oson egallashni ta’minlaydi. Umuman olganda ,turli ilg’or pedagogik vositalar , ko’rgazmalar ,o’yinlar , texnologiyalar asosida darslarning olib borilishi , bo’lg’isi barcha soxa mutaxassislarining ingliz tilini o’rganishda yanada samaralidir.

### **References:**

1. uza.uz Jasur Utamurodov
2. e-library .namdu.uz
3. scholar .google .com
4. Mo’mnov.F ingliz tilini o’qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.